

IX ASRDA TERMIZDA SHAHARSOZLIK

Chubalova Gavhar ¹¹ Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimiMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 10.02.2025**Revised: 11.02.2025**Accepted: 12.02.2025*

KALIT SO'ZLAR:

*Tarmita-Termiz, Oks
bo'yidagi Aleksandriya,
Antioxiya Tarmitasi,
Movarounnahr,
Muhammad Hakim
Termiziy maqbarasi,
Termizshohlar saroyi,
Chor-sutun masjidi,
Budrach.*

Ushbu maqolada Termizning IX asri haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Olib borilgan tadqiqotlar asnosida mazkur hudud shaharsozlik san'ati, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq, madaniy va ilmiy hayot gullab-yashnagan edi, bu esa shaharning me'morchiligi va shaharsozligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi haqida tarixiy manbalarga asoslangan holda ma'lumot beriladi.

KIRISH. Tarmita-Termiz O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Uning daryo kechuvi va savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi Baqtriya-Toxariston o'lkasining yirik shaharlaridan biri sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. Ushbu ko'hna shahar zamonaviy Termiz shahridan shimoli - g'arbiy tarafda, 7 km masofa uzoqlikda, Amudaryo bo'yida joylashgan. Yodgorlikning qal'a qismida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida milodiy I ming yillikning o'rtalariga oid bo'lgan sopol buyumlar namunalari aniqlangan. Keyinchalik Aleksandr Makedonskiy tomonidan shahar-qal'aga aylantirilgan manzilgoh, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya shohlari hukmronligi davrida yanada rivojlangan. Arxeologik qazishmalar jarayonida Eski Termiz hududidan ellinizm davriga oid ko'p sonli arxeologik topilmalar qayd etilgan. Antik dunyoning bir qismi bo'lgan Tarmita-Termiz bugungi kunda xorijiy

ilmiy markazlarning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston-Fransiya, O‘zbekiston-Yaponiya, O‘zbekiston-Koreya xalqaro ekspeditsiyalarining tadqiqotlari natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Metodlar:

Mazkur maqolada Tarmita-Termizning qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixiy geografiyasiga oid ilmiy manbalar tizimlashtirilgan, arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan va umumlashtirilgan. Tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Milodiy IX-XIII asrlarda esa Tarmita-Termiz Movarounnahrda islom madaniyati markazlaridan biriga aylanadi. Bu davrda Tarmita-Termiz Movarounnahrning o‘rta asrlar davriga xos shaharlari singari uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan va mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Yodgorlik hududida islom dunyosining yirik mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Muhammad Hakim Termiziy maqbarasi ham joylashgan. Tarmita-Termiz 1220-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlariga qarshi 11 kun davomida mardonavor qarshilik ko‘rsatadi. Biroq, mo‘g‘ul qo‘shinlari tomonidan shahar egallanadi va vayron qilinadi.

IX asrdan boshlab butun Movarounnahrda bo‘lgani kabi Termiz va Chag‘oniyonda ham shaharsozlik jadal taraqqiy etgan. Bu davrda o‘lkada uch qisimli shaharlar batamom shakllangan. Termiz va Chag‘oniyonning tuzilishini ifodalashda tarixchi Jayhaniy yozib qoldirgan ma’lumotlar juda muhimdir. Uning yozishicha Termizda shahriston (ichki shahar) va kuhandiz bo‘lgan. Shahar bora (mudofaa devori) va rabod (tashqi shahar)ga ega. Chag‘oniyonning markaziy shahri Chag‘oniyonda, ibn Havqalning ta’riflashicha, ark-kuhandiz mavjud bo‘lgan. Al-Muqaddasiy esa shaharda juda ko‘p muhtasham yopiq bozorlar bo‘lib, ulardan birining markazida pishirilgan g‘ishtdan qurilgan juma masjid joylashgan, deb ta’kidlagan. "Hudud alolam"da Chag‘oniyonga tog‘ning yon bag‘rida joylashgan katta shahar, deb ta’rif berilgan. Termiz va Chag‘oniyonning o‘rta asrlar davri shaharsozlik madaniyatini o‘rganishda arxeologlar M. Masson, E. Rtveladze, Sh. Pidayevlar tomonidan o‘tkazilgan qazishma ishlari juda muhimdir. Termizning 500 gektarlik shahar tusini olishi Sh.Pidayevning ta’kidlashicha, X asr oxirlarida sodir bo‘lib, XI-XII asrlar davomida juda ravnaq topgan. Buning asosiy sabablaridan biri uning iqtisodiy va harbiy jihatdan muhim joyda, ya’ni Jayhun bo‘yida joylashganligidir. Arxeologiya va yozma manbalarga tayanib, Termizning X-XIII asrning

birinchi choragidagi ichki tuzilishini quyidagicha ta'riflash mumkin. Shahar kunhandizida hokim saroyi joylashgan. Shahrison o'ziga xos qo'sh devorlar bilan o'rab olingan. Ichki shaharda X asrda boshqa inshootlar bilan bir qatorda termizlik olim Al - Hakim at-Termiziy maqbarasi shakllangan. Bu joyda juma masjid va bozor ham bo'lgan. Shahrisondan sharqda va shimoli sharqda mustahkam mudofaa inshootlari bilan muhofazalangan rabod qism joylashgan. Uning har tomonida darvoza mavjud bo'lib ularning asosiysi markaziy yo'lga tutash sharqiy tomondagi darvoza hisoblangan. Bu darvoza shaharning ichki qismini termizshohlar saroyi bilan bog'lab turgan. Rabodning markaziy qismida Chor-sutun masjidi va minorasi joylashgan. Bu joyda, shuningdek, karvonsaroylar, hammomlar hamda shaharlik hunarmandlarning alohidaalohida mahallalari bo'lgan. Rabodning qolgan qismi ham shahrisondagi kabi yuzlab xonadonlardan iborat bo'lgan. Tarixchi Jayhaniyning ta'kidlashicha, "xonadonlar loydan qurilgan bo'lib, juda muhtashamdir." Har bir xonadon shaharning umumiy me'morchilik tuzilishiga qarab qurilgan. Bu holni ayniqsa, xonadonlarning bir-biriga nisbatan joylashishida, shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlash va chiqindi suvlarni chiqarishga mo'ljallangan qurilmalar misolida kuzatish mumkin. Har bir shaharlik xonadoni 20 va undan ortiq har xil hajmdagi ayvon, qabulxona, bazm xonalari, erkak va ayollar qismlari va xo'jalik bilan bog'liq inshootlardan iborat bo'lgan. Xonalarni bezashda murakkab islamiy va girih naqshlar, rangtasvirlar, yog'ochkorlik keng qo'llanilgan. XI asrdan boshlab rabodning sharqiy tomonida termizshohlar saroyi vujudga kelgan. Yarim aylana shaklidagi burjli mudofaa devori bilan o'rab olingan bu saroyning umumiy maydoni 10 gektarga teng bo'lgan. Bu joyda asosan qabul marosimlariga mo'ljallangan qabulxona va u bilan bog'liq binolar qurilgan. Chag'oniyonning markaziy shahri Budrach (Qizilsuvning Chag'onrudga quyilish joyida) 6 kvadrat kilometr ga teng maydonni egallagan. Bu shahar o'zining yuksaklikka erishgan davrida, ya'ni X-XI asrning birinchi yarmida Sangardak-Qizilsuvning har ikkala qirg'og'ini egallagan. Tarixchi Istaxriyning ma'lumotlariga ko'ra, "Sag'oniyon (Chag'oniyon) Termizdan maydoni jihatidan katta, lekin Termiz aholisi soni va boyligi bilan Chag'oniyondan ustun." Arab-fors manbalarida Termiz va Chag'oniyon kabi poytaxt shaharlar bilan bir qatorda yana bir qancha shaharlarning nomlari uchraydi. Xushvara (G'urjak qishlog'idagi Xosiyattepa yoki Kattatepa), Hoshingird, Charmangan yoki Sarmangan (forsiyda Jarminkon, Jarqo'rg'onning Minor qishlog'ida) va boshqalardir. Shaharlar atrofida bog'-rog'larga boy ko'plab qishloqlar joylashgan. Tarixiy manbalarda Termiz atrofida Ruxshabud, Shayshak, Batikar, Bug', Chag'oniyonda esa Muqaddasiy yozib qoldirgan dalillarga ko'ra, 16000 qishloq bo'lgan. Manbalarda Chag'oniyon

qishloqlaridan Basand, Barangi, Dorzangi, Qumg'onon, Sangardak, Burob, Zinvar, Navondaklar tilga olingan. IX asrdan boshlab Termiz va Chag'oniyonda uylar, saroylar, qabul zallari va masjidlarni bezashda murakkab islmiy va girih naqshlar juda ko'p ishlatilgan. Me'morchilik inshootlarini barpo etishda murakkab qurilish uslublari (qubbalar, yoysimon arklar, gumbaz, peshtoq va kungurali ustunlar) keng qo'llanilgan. Mahobatli qurilish inshootlaridan tortib alohida moddiy madaniyat namunalarning yaratilishi bilan bog'liq jarayon asosida Termiz va Chag'oniyon yurtlari aholisining islom davrigacha erishgan yutuqlari ham yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пидаев Ш.Р. Қадимий Термиз. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 55. (Pidaev SH.R. Ancient Termiz. – Tashkent: Fan, 2001. – P. 55.)
2. Пидаев Ш.Р. Материалы к изучению древнейшей истории Термеза // ОНУ. 2000. №3 (6). – С. 51–56. (Pidaev SH.R. Materials for the study of the ancient history of Termez ONU. 2000. No. 3 (6). – Pp. 51–56.)
3. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры. – М.: Наука, 1977. – 287 с. (Stavisky B.YA. Kushanian Bactria: Problems of history and culture. – M.: Nauka, 1977. – 287 p.)
4. Strelkov A.S. Les Monument preislamique de Termez. Vol.3, #4, – Zurich. «Artibus Asiae», 1928–1929. – Pp. 216–224.
5. Ставиский Б.Я. К предыстории археологического изучения Каратепе в Старом Термезе (работы летом 1936 года) // Краеведение Сурхандарьи. – Ташкент, 1989. – С. 70–76. (Stavisky B.YA. To the prehistory of the archaeological study of Karatepe in Ancient Termez (works in the summer of 1936) // Local history of Surkhandarya. Tashkent, 1989. – Pp. 70– 76.)